

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING MOSLASHUVIDA OILA VA MAKTABNING ROLI

Shodmonova Saboat Sattorovna

Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 43-maktab direktori

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 20.11.2025

Revised: 21.11.2025

Accepted: 22.11.2025

KALIT SO'ZLAR:

*inklyuziv ta'lim,
adaptiv jismoniy
tarbiya, imkoniyati
cheklanganlar,
psixologik qo'llab-
quvvatlash, ijtimoiy
integratsiya,
psixologik to'siq*

Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy va ta'limiy muhitga moslashuvi jarayoni yoritilgan. Unda oila va maktabning moslashuvga ko'rsatadigan psixologik, pedagogik va ijtimoiy ta'siri, ular o'rtasidagi hamkorlik shakllari hamda bu hamkorlikning samarali natijalari tahlil qilingan. Maqola inklyuziv muhitda ishlovchi pedagoglar, psixologlar va ota-onalar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kirish

Jahon ta'limi amaliyotida ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga moslashuvchan o'quv muhitini yaratish, variativ o'quv dasturlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. BMT ning ta'lim sohasidagi siyosati yo'nalishlaridan biri bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari xilma-xilligini hisobga olgan holda ta'lim berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta'lim g'oyalarini ishtirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta'minlash hisoblanadi. YUNESKOning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan dasturlari alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar va kattalar uchun xavfsiz va qulay ta'limni ta'minlashga qaratilgan me'yorlar, standartlar hamda intellektual hamkorlikni modernizatsiyalashga yo'naltirilmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida

belgilangan ijtimoiy tenglik qoidalarini amalga oshirishda ta'limning barcha uchun ochiqqligini, gender jihatdan tenglikka asoslanganligini ta'minlovchi mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda inklyuziv ta'limni ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me'yorlari ishlab chiqilgan. "Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish maqsadida ta'lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o'quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog'lomlashtiruvchi sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash" kabi muhim vazifalar belgilandi. Boshlang'ich ta'limda o'qitish sifatini yaxshilash, o'quvchilarning imkoniyatlariga mos, davlat ta'lim standartlari me'yorlari inobatga olingan o'quv muhitini samarali tashkil etish, bu jarayonda tashkilotlar va jamoat institutlari hamkorligini kuchaytirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur ijtimoiy-pedagogik masalalarni hal etishda ta'lim, sog'liqni saqlash va mahalla tashkilotlarining imkoniyati cheklangan bolalarni sifatli ta'lim xizmatlari bilan ta'minlash borasidagi o'zaro manfaatli hamkorligi talab etiladi.

Bu esa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida metodik mahorat, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning klasterli yondashuvlari, tashkiliy omillari, pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, inklyuziv sinflarda darslarni tashkil etishga qo'yiladigan didaktik talablarni aniqlashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 29 aprelda PF 5712-son "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida", 2020 yil 6 noyabrda PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi, 2022 yil 28 yanvarda PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan YAngi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", farmonlari, 2020 yil 13 oktyabrda PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrda 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy xujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va boshqa xujjatlarda kadrlar

masalasi, ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta'minlash vazifalari belgilab berilgan.

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim tizimi imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatga to'liq qo'shilishi, ularning ijtimoiy, emotsional va akademik rivojlanishiga katta e'tibor qaratmoqda. Inklyuziv ta'lim sharoitida bolalarning muvaffaqiyatli moslashuvi asosan ikki muhim omilga bog'liq: oila va maktabning faol hamkorligi. Oila – bolaning birinchi va eng asosiy muhitidir. Oila a'zolari bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantiradi, uni qo'llab-quvvatlaydi hamda o'ziga xos ehtiyojlarini tushunib, psixologik yordam beradi. Oila tomonidan ko'rsatiladigan mehr-muhabbat va sabr, bolaning ijtimoiy muhitga moslashuvini osonlashtiradi. Shuningdek, ota-onalar maktab bilan yaqindan hamkorlik qilishi, o'qituvchilar bilan muntazam muloqotda bo'lishi, bolalarning o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatlari va qiyinchiliklarini birgalikda hal qilishda muhimdir. Maktab esa inklyuziv ta'limning markaziy maskani bo'lib, imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv dasturlari, metodikalar va resurslar bilan ta'minlaydi. O'qituvchilar bolalarni individual tarzda qo'llab-quvvatlab, ularning ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Oila va maktabning yaqin hamkorligi, ularning birgalikdagi sa'y-harakatlari imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatga moslashuvi va ularning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shu yo'l bilan inklyuziv ta'lim bolalar uchun nafaqat o'quv jarayoni, balki hayotda to'liq ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi. Ushbu ishning maqsadi – tadqiqotda inklyuziv sinflarda adaptiv jismoniy tarbiya jarayonining pedagogik va psixologik jihatlarini tahlil qilishdan iborat [10]. Tadqiqotning usullari quyidagilardan iborat: ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish usuli; umumlashtirish usuli.

Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy mahorati va hamkorligi, avvalo, alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Inklyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan har qanday holatlarni istisno etadigan, barcha uchun teng muomalani ta'minlaydigan, lekin maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun zarur sharoit yaratadigan mafkuraga asoslanadi.

Inklyuziv ta'lim nima?

Tengdoshlaringiz, sinfdoshlaringiz orasida imkoniyati cheklangan (nogiron) bolalar ham bor, to'g'rimi? Siz ular bilan do'stlashib, birga dars tayyorlaysizmi, birga o'ynaysizmi?

Axir ular ham siz kabi jamiyatda baxtli bo'lishga haqli, shunday emasmi?

Inklyuziv ta'lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta'lim olishini anglatadi. Ya'ni imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak. O'zbekistonda oilaviy sharoitidan qat'i nazar, barcha bolalar davlat umumta'lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan.

Xo'sh nega inklyuziv ta'lim zarur?

Ba'zan tengdoshlarimiz, maktabdoshlarimiz orasida yoki mahallada imkoniyati cheklangan bolalarni ko'rib qolsak, tushunib-tushunmasdan uni ajratib qo'yishga, u bilan muloqot qilmaslikka harakat qilamiz. Bu noto'g'ri, aslida ular bilan o'rtoq bo'lib, bir jamoa bo'lib yashasak, ularning baxtli hayot kechirishlariga hissa qo'shishimiz mumkin. Jamiyatda har bir bola baxtli bo'lishga haqli!

Bugungi kunda nogironligi va rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar sifatli ta'lim olishlari va keyinchalik munosib ish topishlari uchun ularga haqiqiy inklyuziv sharoitlarni yaratish bo'yicha mamlakatimizda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta'limning muhim muammolaridan biri bo'lgan alohida ta'lim ehtiyojga ega bo'lgan bolalar guruhini aniqlab, ularga sifatli ta'lim shakllarida bilim berish va salohiyatini oshirishdan iboratdir. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlarga ega bo'lgan tamoyillari va yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan maktabning ta'lim faoliyatiga, yo'nalishlariga, hamda imkoniyatlarga (jismoniy, intellektual) mos kelishi maqsadga muvofiqdir.



Tahlil va natijalar

Imkoniyati cheklangan bolalarning moslashuv jarayonini o'rganish. Inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalar turli jismoniy, psixologik va ijtimoiy qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Tadqiqotning ushbu vazifasi ularning o'quv muhitiga qanday moslashishini, qanday qiyinchiliklarga duch kelishini va bu jarayonda qanday qo'llab-quvvatlash usullari samarali bo'lishini aniqlashga qaratilgan. Shu bilan birga, bolaning moslashuv jarayoniga ta'sir qiluvchi shaxsiy va tashqi omillar (yosh, oila muhiti, maktab muhiti, jismoniy imkoniyatlar) ham o'rganiladi. Imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatga, o'quv muhitiga va atrofdagi odamlar bilan muloqotga moslashuv jarayoni murakkab va ko'p qirrali hisoblanadi. Bu jarayon bolaning nafaqat jismoniy, balki psixologik va ijtimoiy jihatlarini ham qamrab oladi. Moslashuv jarayoni asosan uch bosqichda o'rganiladi:

1. Psixologik moslashuv – bolaning o'z imkoniyatlari cheklanganligini anglab yetishi, o'ziga bo'lgan munosabatini shakllantirishi va ruhiy holatini barqarorlashtirishi. Bu bosqichda bolada o'ziga nisbatan ijobiy yoki salbiy fikrlar paydo bo'lishi mumkin.

2. Ijtimoiy moslashuv – bolaning jamiyatda, sinfdoshlari va boshqa odamlar bilan munosabatlarini o'rganishi, o'zaro aloqalarni rivojlantirishi, o'zini jamiyat a'zosi sifatida his qilishi.

3. Funktsional moslashuv – kundalik hayotdagi vazifalarni bajarish qobiliyati, o'quv jarayoniga va kundalik faoliyatga moslashishi, maxsus texnologiyalar yoki yordamchi vositalardan foydalanishni o'rganishi [2].

Moslashuv jarayonini o'rganishda ota-ona va maktab muhim ahamiyatga ega, chunki ular bolaning ehtiyojlarini tushunib, unga qo'llab-quvvatlov ko'rsatishadi. Shu bilan birga, psixologik va pedagogik yordamlar hamda individual reabilitatsiya dasturlari samarali yechim sifatida qo'llaniladi. Oila va maktabning o'zaro hamkorligini tadqiq etish. Imkoniyati cheklangan bolaning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyati nafaqat maktabga, balki oilaning qo'llab-quvvatlash darajasiga ham bevosita bog'liq. Tadqiqot ushbu ikki muhit – oila va maktab – o'rtasidagi hamkorlikni tahlil qilishni maqsad qiladi. Pedagoglar va otalar o'rtasida samarali muloqot o'rnatish, bolaga qo'shimcha psixologik yordam ko'rsatish va uning ijtimoiy moslashuvini osonlashtirish usullari aniqlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oila va maktabning yaqin hamkorligi bolalarning o'z-o'zini anglashini oshiradi, ularning ta'limga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi va ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi. Shu sababli, ta'lim muassasalari va oilalar o'rtasida

samarali hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni yaratish va amalga oshirish zarur .



Bolalarning maktab muhitiga moslashuvi turli omillarga bogʻliq. Bu omillar ichida pedagoglarning yondashuvi, sinfdoshlarning munosabati, taʼlim muhitining mosligi, oilaviy qoʻllab-quvvatlash darajasi va jismoniy imkoniyatlar muhim rol oʻynaydi. Ushbu vazifa doirasida inklyuziv taʼlimda bolaning moslashuviga taʼsir qiluvchi asosiy omillar aniqlanadi va ularning qaysi biri eng muhim ekani tahlil qilinadi. Imkoniyati cheklangan bolalarning moslashuv jarayoniga taʼsir etuvchi omillar koʻp qirrali boʻlib, ular individual, oilaviy, maktab va ijtimoiy darajada oʻzgaradi.

Quyidagi omillar moslashuv sifatiga bevosita taʼsir koʻrsatadi:

- ♦ bolaning salomatlik holati va imkoniyatlari darajasi, psixologik xususiyatlari (oʻziga boʻlgan ishonch, motivatsiya, stressga chidamlilik), oldingi hayotiy tajriba va oʻrganish qobiliyatlari;

- ♦ oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati, ota-ona qoʻllab-quvvatlashi va mehr-muhabbati, oila aʼzolari oʻrtasidagi muloqot va bolaning ehtiyojlarini tushunish, oila va maktab oʻrtasidagi hamkorlik darajasi;

- ♦ maktabda maxsus taʼlim metodikalarining mavjudligi va sifati, oʻqituvchilarning malakasi va bolaning ehtiyojlariga moslashuvchan yondashuvi, inklyuziv muhitning ijtimoiy qabul qilinishi va sinfdoshlarning munosabati;

=====

♦ jamiyatdagi inklyuziya siyosati va qonunchilik bazasi, mahalliy hamjamiyat va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari, madaniy va diniy stereotiplar, ular orqali bolaning jamiyatda qabul qilinishi.

Ushbu omillar o'zaro bog'liq bo'lib, ularning uyg'unligi yoki muvozanatsizligi bolaning moslashuv jarayonini sezilarli darajada o'zgartiradi. Shuning uchun, imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim va ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashuvi uchun har bir omilni e'tiborga olish zarur.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlaydigan ota-onalar va pedagoglar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ushbu tavsiyalar bolaning ijtimoiy moslashuvini osonlashtirish, uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va ta'lim jarayonida samarali ishtirok etishini ta'minlashga qaratiladi. Tavsiyalar psixologik qo'llab-quvvatlash, moslashtirilgan o'quv dasturlaridan foydalanish va pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishni o'z ichiga oladi.

Har bir bolaning jismoniy va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, ota-onalar, pedagoglar va mutaxassislar o'rtasida doimiy aloqa o'rnatish, bola uchun motivatsiyani oshiradigan maqtov va kichik yutuqlarni qadrlash tizimini yaratish muhim hisoblanadi. Pedagoglar maxsus metodikalarni bilishi, adaptiv jismoniy tarbiya usullaridan foydalanishi, bola rivojlanishini muntazam kuzatib borishi, harakatli o'yinlar orqali uni faollashtirishi va guruh ishlarida muloqotga jalb qilishi lozim. Ota-onalar va o'qituvchilar uchun treninglar va seminarlar tashkil qilish, video qo'llanmalar, elektron darsliklar, mobil ilovalar orqali qo'shimcha ko'nikmalar berish, zarur hollarda psixolog yoki defektolog mutaxassislar maslahatini tashkil etish tavsiya etiladi. Moslashtirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish, individual yondashuvni kuchaytirish imkoniyati cheklangan bolalarning qobiliyatlariga mos mashg'ulotlar tanlash, yuklamani me'yorda taqsimlash va muvaffaqiyat hissini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, o'qituvchilar va sinfdoshlarni imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashga tayyorlash, ota-onalar va pedagoglar o'rtasida muntazam uchrashuvlar, seminarlar va maslahatlar o'tkazish, bolaning holati, rivojlanish sur'ati va ehtiyojlari haqida fikr almashish orqali sinergiya hosil qilish muhimdir. Maktab infratuzilmasini imkoniyati cheklangan bolalar ehtiyojlariga moslashtirish (panduslar, keng eshiklar, liftlar, maxsus partalar, Braille yozuvi, audiovizual vositalar) orqali fizik to'siqlarsiz muhit yaratiladi. Yakuniy tavsiya sifatida inklyuziv ta'lim bo'yicha o'qituvchilar uchun maxsus kurslar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishi, adaptiv metodika, maxsus pedagogika va psixologiya bo'yicha

qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etilishi zarur. Bu esa pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish orqali imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlariga mos yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

Inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarning moslashuvi ko'plab omillarga bog'liq bo'lsa-da, bu jarayonda oila va maktabning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Oila – bolaning eng yaqin ijtimoiy muhitidir va u bolaga mehr, tushunish hamda qo'llab-quvvatlash orqali psixologik barqarorlikni ta'minlaydi. Ayniqsa, ota-onalarning farzandining imkoniyatlariga nisbatan ijobiy munosabati, unga bo'lgan e'tibori va individual yondashuvi bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, pedagog va psixologlar bilan muntazam hamkorlik qilish bolaning rivojlanishidagi ijobiy o'zgarishlarga erishishda zaruriy shartlardan biridir.

Maktab esa bolaning bilim olishi, jamiyatga kirishishi va ijtimoiy faollik ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim muassasa hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida inklyuziv muhit yaratish, pedagoglar tomonidan individual yondashuvni yo'lga qo'yish, maxsus metod va texnologiyalarni qo'llash orqali imkoniyati cheklangan bolalarning jismoniy, aqliy va ijtimoiy salohiyatining to'liq namoyon bo'lishiga sharoit yaratiladi. Ayniqsa, sinfdoshlar va o'qituvchilar tomonidan ijobiy munosabatning shakllanishi bolaning jamoadagi o'z o'rnini topishiga xizmat qiladi. Oila va maktab o'rtasidagi uzviy hamkorlik, pedagogik maslahatlar almashinuvi, psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi hamda bolaga nisbatan yagona yondashuv strategiyasining ishlab chiqilishi inklyuziv ta'lim samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, imkoniyati cheklangan bolaning moslashuv jarayoni oila va maktabning birgalikdagi mas'uliyatli, izchil va tizimli yondashuviga bog'liq bo'lib, bu esa bola shaxsining to'laqonli rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim To'g'risida"gi Qonuni. 2020 Yil 23 Sentyabr. O'Rq-637-Son <https://Lex.Uz/Docs/5013007>
2. 2020-2025 Yillarda Xalq Ta'Limi Tizimida Inklyuziv Ta'lim Inklyuziv Ta'limni Rivojlantirish Konsepsiyasi. O'Z.Res.Prezidenti. 13.10.2020y Pq 4860-Son

3. Суяров, А. Б. (2025). Технологии Организации Дистанцион Ного Обучения. Zamin Ilmiy Tadqiqotlar Jurnal, 1(2), 9-15.
4. Abdullayev, J., & Botirov, S. (2021). Inclusive Education: Necessity, Prospective Trend. Jurnal Pendidikan Non Formal, 1(3).
5. Bekmuradovich, S. A. (2025). The Usage Of Modern Educational Technologies In Teaching A Foreign Language In Higher Educational Institutions. Ta'Lim, Tarbiya Va Innovatsiyalar Jurnal, 1(2), 180-184.
6. Begmuradovich, S. A. (2023). Integration Of Educational Process Forms. Pedagogika, Psixologiya Va Ijtimoiy Tadqiqotlar| Journal Of Pedagogy, Psychology And Social Research, 2(2), 2023.
7. International Disability Alliance (Ida). (2020). Ida Inclusive Education Global Report.
8. Abdug'afforovna, Q. D. (2024). Boburiylar Davrida Adabiyotga Bo'lgan E'tibor. American Journal Of Multidisciplinary Bulletin, 2(4), 71-75.
9. Madaminovich, T. X. I., Samariddinovich, S. S., Shavkatovna, R. G., Ağıl, N., Koşmak, F., & Cuma, A. Tahririyat Kengashi.
10. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(4), 206-208.
11. Abdurakhmanova, R. K. (2015). Hermeneutical And Pragmalinguistic Category Of The Deixis. Hayka Ii Mir, (10-2), 10-12.
12. Kosimovna, A. R. Udk: 81.39 Paradigmatic Properties Of Deictic Units In The Text.

